

KASBIY FAOLIYATDA INDIVIDUAL-TIPOLOGIK XUSUSIYATLAR.

Ruzmetova Sayyoraxon Timurxonovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. do'sent

Mamataliyeva Ra'no Olimjon qizi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika Universiteti Geologiya va Kon-Metallurgiya fakulteti 2-22 guruh talabasi

Annotatsiya: ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talaba shaxsini rivojlantirish, kasbiy ta'lim, kasb doirasida ma'lum faoliyat turini, kasblarni tizimlashtirish va kasbiy shakllanish jarayonida shaxs individual tipologik xususiyatlari, qisqa va asosli talablar majmuasini va muxandis tizimida kasbiy qobiliyat va kasbiymahorati hozirgi kundagi ahamiyati haqidagi bilimlarni o'zlashtirilishini tashkil etish, va kasbiy mahorati hozirgi kundagi ahamiyati kabilarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy etika, kasbiy mahorat, kasbiy ta'lim, xatti-harakat, prinsip va normalar, kasbiy axloq, stress, tipologik xususiyat, ishbilarmonlik etiketi, inson va jamiyat.

Tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi materiallari, sharq klassiklarining ta'lim- tarbiyaga oid asarlarini sinchiklab o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi qadim zamonlardan boshlab farzandni tarbiyalash sohasida o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan.

Ota-onalarning bolalarni sevishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onani astoydil hurmat qilishi oila tarbiyasining ko'rki bo'lib hisoblangan.

Sharq mamlakatlarida ayniqsa, ota-onalarning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasining eng muhim usullaridan biri hisoblangan. Shunga ko'ra, o'g'il bolalar yurish-turishi, o'zaro muomalasi, kasb egallashda otasiga o'xshashlikka harakat qilgan. Ota kasbini egallash yaxshi tarbiyaning natijasi hisoblangan.

Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko'plab insonlar bilan, katta-yu kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo'ladi.

Bu in sonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an'ana va qonun-qoidalariga amal qilishni talab etadi.

Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ob'yektiv aloqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabat - xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

«Axloq» - arabcha so'z bo'lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, odob degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni o'zida mujassam etadi.

Muomala madaniyati. Odamlar bilan muomala qilish sana'ti ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan odamdan bunday fazilat bo'lishi va bu fazilat har qanday sharoitda namoyon bo'ishi maqsadga muvofiqdir.

Siz mehmonxonada, restoranda, kutubxonada yoki laboratoriyada ishlashingizdan qat'iy nazar, eng muhimi - o'z fikringizni aniq va ravshan ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi.

Har bir odam o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalay bilishi lozim. Sizning o'z individualingizni saqlab qolishga intilishingiz va o'zingiz tanlab olgan hamkorlaringiz bilan ishlashni xohlashingiz - sizning "jamoaning yaxshi o'yinchisiga" aylanishingizga olib keladi. Nomzodning bo'lajak lavozimga ishga o'tish maqsadida suhbatda ishtirok etishining samaradorligi uning kommunikativligi va shaxslararo muomala qilish qobiliyatlarining rivojlanganligiga bog'liqdir.

Masalan, agar suhbat mobaaynida ish beruvchining ko'zlariga qarashga tortinsangiz, u sizni o'ziga ishonmaydigan odam deb o'ylaydi. Muloqotlarda passiv emas, balki faol qatnashuvchi bo'lishga intiling va savol-javob qilishni o'rganing. Shu sabab bilan siz ritorika usullarini, imo ishoralar va mimikalar yordamida suhbatlashishni o'rganing, suhbat davomida o'zingizni tutib turishni, xulqingiz yaxshi bo'lishini ta'minlang shunda siz qay ishda bo'lmang, qay lavozimni egallamang, sizga doim muvaffaqiyatlar hamroh bo'ladi.

Kommunikatsiya. Kommunikatsiya - bu odamlarning o'zaro ish faoliyatidagi bir - biri bilan bo'lgan axborot ayirboshlashuvi. Boshqacha aytganda, kommunikatsiya - bumuloqot.

Harqanday ma'lumotni ishoralar, tizimlar, orqali uzatish mumkin. Bu borada verba va noverbal kommunikatsiya turlarini ajratmoq lozim. Verbal - kommunikatsiya - bu nutq. Noverbal - nutqsiz, so'zlashuvsiz kommunikatsiyadir.

Noverbal kommunikatsiya usullari nutq bilan so'zlashuvni to'ldiradi. O'rtacha olganda kishi bir kunda 30 daqiqa atrofida so'zlashadi. Verbal kommunikatsiya orqali axborotning taxminan 7% uzatiladi (ishbilarmonlar orasida muloqotda 35%), noverbal muloqotda esa 60% dan 70% gacha axborot uzatiladi.

Shuning uchun ham, ming marotaba eshitgandan ko'ra, bir marotaba ko'rgan afzal deyishadi. Boshqacha aytganda, noverbal kommunikatsiya nutqiy so'zlashishga qaraganda ma'lumotlarga ancha boydir.

Verbal kommunikatsiya. Ritorika. Verbal kommunikatsiya - bu so'zlashish. Ritorika - notiqlik sana'ti bo'lib kishidan chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyati (chiroyli va ta'sirchan ovozi, aniq va ravshan talaffuzi) ni talab qilgan. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi III-II asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Ishbilarmonlik ritorikasi - bu samarali, tasdiqlovchi va asoslangan so'zlashuv haqidagi fan.

Ritorika inson muloqotining barcha-axloqiy, hissiy, mulohazali yoki mantiqiy sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun ritorika nafaqat tadbirkorlik maqsadlarining shakllanishida, balki odamlarning qarashlari, fikrlari, jamoalarning va jamiyat qarashlarning qaror topishida ishtirok etadi.

Ritorikani o'rganish quyidagi amaliy masalalarni yechishga yordam beradi:

- umumiy va ishbilarmonlar orasidagi muloqot madaniyatini;
- sizni qiziqtirayotgan shaxslar, tashkilotlar va tuzilmalar bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish;
- muzokaralarga tayyorgarlik ko'rish va ularni muvaffiqiyatli tarzda o'tkazish;
- firmaning samarali tijorat kompaniyasini tashkil etish;
- jamoada ijodiy muhitni yaratish;
- korxonada qulay psixologik muhitni yaratish;
- so'zlashuv usullari orqali boshqaruvni takomillashtirish.

Telefon suhbatlarini olib borish etiketi

Kun davomida biz bir necha bor telefon go'shagini olib mijozlar-u hamkorlar, hamkasaba-yu ishbilarmonlar, do'stlar va oilamiz bilan gaplashamiz, ammo bu vositadan mohirona foydalanish oson ish emas.

Telefon orqali yoqimli tarzda o'zini tanishtirish-suhbat boshlashning eng yaxshi yo'li. Bu tanishtirish iloji boricha qisqa bo'lishi va firma nomi, ismi-sharifingiz (kerak bo'lsa bo'limingiz nomi va murojat shaklini o'zida qamrab olishi kerak, chunki qo'ng'iroq qiluvchida kom bilan gaplashayotganligi haqida aniq tasavvur hosil bo'lishi lozim.

Ism-sharifini aytgan chog'ida qo'ng'iroqni qabul qiluvchi ovoz intonatsiyasini go'yo savol berayotgandek baland qilishi kerak, chunki bu qo'ng'iroq qiluvchini o'z iltimosi yoki fikrini aytishga chorlaydi.

Agar suhbat qurish qo'lingizdan kelsa, uni mustahkamlash kerak. Kim ko'proq savol bersa, u suhbatni olib boradi, uni boshqaradi. "Ochiq qolgan savollar" hamkoringizni muloqot qilishga undaydi. Gapiruvchining gapini bo'lish odobdan emas. Agar suhbatdoshingiz bir nima demoqchi bo'lganini, ammo gapirmayotganini sezib qolsangiz, unda u sizni hurmat qilgani haqida xulosa qilishingiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Qurbonova G.A. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Musika nashriyoti", 2018.
2. Ivanov P., Zufarova M. Umumiy psixologiya. Darslik. 2008.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T., 1994.
4. Komilov N. Tasavvur va komil inson axloqi. - T., 1996.
5. www.psychology.net.ru